ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-4

YOSHLARNI IJODIY QOBILYATLARINI RIVOJLANTIRISH VA KASB TANLASHNING PEDAGOGIK PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Kurbanbayeva Malika Urazbayevna
Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi
katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushu maqolada yoshlarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishi, ularning kasbiy mas’uliyatining oshishi va jamiyatdagi rolining o‘zgarishi ularni ta’lim jarayonidagi jadal o‘zgarishlarga tez moslashishi, o‘ta faollik, doimiy o‘zini rivojlantirish va mustaqil bilim olishga tayyor bo‘lishi, o‘qitishning zamonaviy yondashuvlari va texnologiyalaridan boxabar bo‘lishi, shaxsiy sifatlarini aniqlashda malakaviy amaliyotning nazariy va amaliy tomonlari, kasbiy faoliyatni sezilarli o‘zgartiruvchi va yangi mazmun bilan to‘ldiruvchi talablarni rivojlantirish va kasb tanlashning pedagogik-psixologik tomonlari haqida fikr mulohazalar yuritilgan.
Kalit so’zlar: Ijodkorlik, qobilyat, intellekt, kasb tanlash, ijodiy fikrlash, metodika, innovatsiya.
Аннотация. В статье рассматриваются вопросы развития творческих способностей молодых людей, повышения их профессиональной ответственности и изменения их роли в обществе, их быстрой адаптации к быстрым изменениям в образовательном процессе, их высокой активности, готовности к постоянному саморазвитию и самостоятельному обучению, осведомленности о современных подходах и технологиях обучения, теоретических и практических аспектах профессиональной деятельности по определению личностных качеств, формирования требований, существенно изменяющих профессиональную деятельность и наполняющих ее новым содержанием, а также педагогических и психологических аспектов выбора профессии.
Ключевые слова: Креативность, способности, интеллект, выбор карьеры, творческое мышление, методология, инновации.
Annotation. This article discusses the development of young people's creative abilities, the increase in their professional responsibility and the change in their role in society, their rapid adaptation to rapid changes in the educational process, their high activity, readiness for constant self-development and independent learning, awareness of modern approaches and technologies of teaching, the theoretical and practical aspects of professional practice in determining personal qualities, the development of requirements that significantly change professional activity and fill it with new content, and the pedagogical and psychological aspects of choosing a profession.
Key words: Creativity, ability, intelligence, career choice, creative thinking, methodology, innovation.

Bozor iqtisodiyotining kundan-kun rivojlanib borishi, globallashuvning chegara bilmasligi, jadallik bilan rivojlanayotgan O‘zbekistonda yangi davlat ta`lim standartlarini joriy etilishi yoshlarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishi, ularni takomillashtirish va isloh qilishni, shuningdek, butun o‘zbek xalqiga erkin yashash, rivojlanish, yurt ravnaqi uchun o‘z hissasini qo‘shish va bundan tashqari qator cheksiz imkoniyatlar eshigini ochdi. Ayni shu mustaqillik hosilasi o‘laroq yurtimizda amalga oshirilayotgan keng islohotlarni talab qiladigan kasbiy, shaxsiy sifatlarini aniqlashda malakaviy amaliyotning nazariy va amaliy tomonlari, kasbiy faoliyatni sezilarli o‘zgartiruvchi va yangi mazmun bilan to‘ldiruvchi talablarni qo‘ymoqda. Chunki mazkur standartlar kompetentli-faoliyatli

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-4

yondashuvga asoslangan bo‘lib, ular ajdodlaridan bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish emas, balki uzluksiz ta’lim olish, ehtiyojlari va qobiliyatlarini rivojlantirishga layoqatli shaxsni tarkib toptirishga yo‘naltirilganligi bilan farq qiladi.

Yoshlarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning kasbiy mas’uliyatining oshishi va jamiyatdagi rolining o‘zgarishi ularni ta’lim jarayonidagi jadal o‘zgarishlarga tez moslashishi, o‘ta faollik, doimiy o‘zini rivojlantirish va mustaqil bilim olishga tayyor bo‘lishi, o‘qitishning zamonaviy yondashuvlari va texnologiyalaridan boxabar bo‘lish hamda ularni samarali qo‘llay olish sifatlariga ega bo‘lishlarini taqozo qiladi. O‘qituvchi faqatgina o‘quv dasturlari, darsni tashkil qilish va baholash bilan chegaralanmasdan, o‘quvchilarning alohida ehtiyojlari va imkoniyatlarini rivojlantirishi, ularni qiziqtirishi, o‘z ortidan ergashtira olishi va doimo o‘z o‘quvchilairdan “bir qadam oldinda” yurishi lozim. Shundagina, yosh ustoz o‘z o‘quvchilariga yangi bilimlar berishi, bergan topshiriqlarini bajartira oladi.

Bo‘lajak yosh mutaxassislarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga ko‘maklashuvchi sharoitlarni yaratish ularni ijodiy rivojlantirishning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Xorijlik tadqiqotchilar ham bo‘lajak yosh o‘qituvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga katta ahamiyat berishini ilmiy tadqiq qilganlar. N.G.Alekseev va E.G.Yudin kabi olimlar “eng qobiliyatli, mustaqil ijodiy faoliyatga moyilliklari mavjud” talabalarni aniqlashning, “ularning o‘zlarini eng yuqori darajada namoyon qila olishlari uchun sharoit yaratish va bunga turtki berish” zarurligi haqida fikr yuritadilar.[1]

S.I.Arxangelskiy, D.N.Bogoyavlenskiy, N.A.Menchinskaya kabi olimlar bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda ilmiy-tadqiqot yo‘nalishini ko‘lamini oshirishni taklif qiladilar.[2] Ish beruvchining bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorlashga qo‘yadigan talablarini o‘rgangan olima G.I.Baturina talablar orasida birinchi o‘rinni ijodiy salohiyat, ishga nisbatan moslashuvchan yondashuv, o‘rganishga bo‘lgan layoqat (83 foiz) egallaydi, deb qayd etadi.[3] V.A.Slastyonin uchun bo‘lajak o‘qituvchining innovatsion faoliyatida individual-ijodiy yondashuv pedagogning o‘zini ijodiy shaxs sifatida anglashi, uni takomillashtirish va isloh qilishni talab qiladigan kasbiy shaxsiy sifatlarini aniqlashni nazarda tutadi. O‘zini takomillashtirishga bo‘lgan ehtiyoj novator o‘qituvchining asosiy sifati sanaladi. Shuning uchun oliy ta’lim muassasalaridagi kasbga tayyorlash tizimi o‘zini tarbiyalash va ijod qilishga qodir bo‘lajak novator-o‘qituvchini shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Kasbiy ta’limning bir qismi sifatidagi malakaviy amaliyot esa uning salohiyatini ochib berishi lozim.[4] Ilmiy izlanishlar davomidagi kuzatishlarimiz bo‘lajak yosh pedagog mutaxassislarning barchasi ham mustaqil ravishda kasbiy rivojlanish yo‘nalishlarini belgilashi, o‘z faoliyatlarini qayta qurishi, o‘zaro ta’sir va kommunikativ munosabatlarga tez kirishish layoqatlariga yetarlicha ega emasliklari va ko‘p ikkilanishlarga borishini ko‘rsatdi. Ular zaruriy adabiyotlar, o‘z bilimlari va malakasini oshirish shakllarini tanlash, kasbiy ehtiyojlari va qiyinchiliklarini anglash, o‘zlarini namoyon qilish, pedagogik g‘oyalarini amaliyotga tatbiq qilish, qanday hollarda ta’lim xizmatlarini ko‘rsatuvchi qaysi sub’ektlarga murojaat qilishlarini aniqlashlarida amaliy yordamga muhtojlik sezadilar. Shu sababdan bo‘lajak pedagoglarning bilimlairni oshirish, kasbiy ehtiyojlarini qondirish, muayyan muammoli

[1] Алексеев Н.Г., Юдин Э.Г. О психологических методах изучения творчества.- М., Наука, 1971,- с. 22

[2] Богоявленский Д.Н., Менчинская Н.А. Психология усвоения знаний в школе. М.: 1959.-347 с.

[3] Батурина Г.И. Введение в педагогическую профессию: Учебное пособие/ Г.Ф.Кузина.-2-е изд.,стер. -М.; Академия, 1999 - с. 176

[4] Сластенин В.А. Формирование личности учителя советской школы в процессе его профессиональной подготовки. -М.: Просвещение, 1976.-е. 160, 36-54

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-4

pedagogik vaziyatlarda maqbul yechimlarni topishda ichki imkoniyatlardan foydalanish, o‘zini-o‘zi motivlashtirish va rag‘batlantirish, o‘zini-o‘zi rivojlantirish strategiyalarini belgilash, ijodiy qobiliyatlarini faollashtirish, innovatsion jarayonlarga doir ko‘nikma va malakalarni takomillashtirish, muxtasar aytganda, uzluksiz pedagogik va kasbiy rivojlanishlariga ilmiy-metodik hamrohlik qilishga qulay sharoitlarni vujudga keltirishga asosiy e’tiborni qaratishi zarur.

Yoshlarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularni takomillashtirish va isloh qilishda faqat nazariy bilimlarni va tahsil oluvchilar bilan ishlashning amaliy malakalari va ko‘nikmalarini o‘zlashtirish bilan cheklanib qolmaslik lozim. Pedagog talabalarda o‘qituvchi shaxsining kasbiy ahamiyatli sifatlarini, o‘z ishiga e’tiqod, maktabda ishlashga pedagogik maqsadga yo‘naltirilganlik, qiziqishlar va ijodiy pedagogik faoliyat uchun qobiliyatlarni shakllantirishni ham taqozo etadi. Bu yerda talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun universitet va institutlarda o‘qituvchilarining o‘zlari o‘z dunyoqarashlarini doimo kengaytirish va bilimlarini oshirish zarur. O‘qituvchining o‘zi, avvalo, ijodkor bo‘lishi, ijodiy fikrlay olishi, auditoriyada ijodiy muhit yarata olishi va oliy ta`lim muassasalarida o‘quv jarayonini ijodiy tashkil qila olishi kerak. Shu munosabat bilan bo‘lajak pedagoglarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish imkonini beradigan ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, uni takomillashtirish va isloh qilishni tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari tizimini ilmiy asoslash tadqiqotimiz muammosi hisoblanadi.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, jamiyatimizda yuz berayotgan katta o‘zgarishlar oliy ta’lim muassasalari, maktabgacha va maktab ta’limi oldiga ham o‘quv faoliyatining barcha jabhalarida ijodkor yosh pedagoglarni shakllantirish bilan bog‘liq muammolar yechimini hal etish vazifasini qo‘ymoqda.[5] Bu muammolarning yechimini topishda iqtidorli, ijodkor, kreativ fikrlaydigan, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishni o‘zining asosiy muammosi sifatida qaraydigan yoshlarni tarbiyalash davlatning asosiy ishlaridan biri bo‘lmoqda.

Hozirgi kun o‘qituvchisi bolalar bilan ishlaganda bu qobiliyatlarning yanada samaraliroq rivojlanishiga yordam berishi, o‘quvchilarning aqliy va amaliy malakalarini faollashtirishni ta’minlaydigan ta’lim usullari va metodlarini qo‘llashga diqqatini qaratishi lozim. Buning uchun o‘qituvchi ta’lim muassasasidagi shart-sharoitlar va o‘z imkoniyatlaridan kengroq foydalanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.[6]

“Sharq Aristoteli” deb tan olingan mashhur o‘rta asr faylasuf olimi Abu Nasr ibn Muhammad al-Farobiy o‘qituvchilarning faoliyatini mamlakatning domiy hukumroniga o‘xshatadi: “Bunday odam (o‘qituvchi-muallim) inson erishishi mumkin bo‘lgan eng oliy darajada erishmog‘i, baxtlilikning cho‘qqisidan o‘rin olmog‘i lozim. U insonning baxtga erishishining barcha yo‘llaridan ogoh bo‘lgan zotdir” degan fikrni ilgari suradi o‘zining “Namunali ta’lim haqida” nomli risolasida.

Har qanday faoliyat asosida mehnat yotadi. Mehnat esa muayyan kasb - hunar bilan bog`liq bo`lib o`ziga xos murakkab jarayon hisoblanadi. Shaxs o`z imkoniyatlariga mos mehnat jamoasini tanlashi, undagi vaziyatni to`g`ri baholay olishi, to`plangan amaliy tajriba va bilimlarni ish faoliyatiga joriy etish, mustaqil ko`nikma hosil qilishi kabi bir qancha shartlarni o`z ichiga olgan ushbu jarayonni umumiy mezon bilan baholashi mumkin. Bugungi kunda har bir yoshlarning kasblar olamida o`z o`rnini topishi, kasbiy o`zligini anglashi, jamiyatda o`z o`rnini topishga intilishi va unga qiziqishlari kun sayin ortib bormoqda. Yoshlarga ko`plab kasblar ichida qaysi birini tanlash, unga o`zida moyillik,

[5] T.Ergashev https://internationaljournals.co.in/index.php/giirj/article/view/5134

[6] Азимов С.С. Авлиякулов М.М., Собиров Т.Р, Бадиев М.М.- Дидактических задач в развитии пространственного воображения студентовeuropean science-2021. № 2 (58)

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

layoqat va qiziqishlarining mos kelishi yoki kelmasligini bilish kelajakda muhim ahamiyat kasb etishini tushuntirish muhim masala hisoblanadi. O`quvchilarni kasb-hunarga yo`naltirishning asosiy maqsadi birinchi navbatda yoshlarni o`zining hayot yo`lini to`g`ri belgilashlarida qobiliyat, qiziqish va moyilligini hamda sog`liklari holatini e'tiborga olgan holda kasb tanlashlariga ko`maklashishdan iborat.

Buning uchun yoshlarlarni kasbiy ma'lumotlar, kasblarning insonlarga qo`yadigan talablari, kasblar bo`yicha mehnat jarayonlarining xususiyatlari, mazkur kasbni egallash manbalari, shuningdek, o`quvchilarni o`ziga yoqqan kasbga qat'iy qiziqish hosil qilishi uchun zarur ma'lumotlar bilan tanishtirishda maktab amaliyotchi psixologi, kasbga yo`naltiruvchi, fan o`qituvchilari va sinf rahbarining o`rni juda muhimdir.

Bugungi kunda yoshlarning kasb-hunar o`rganishlari, kasb tanlashlarida ikkilanishlar, noto`g`ri kasb tanlash kabi muammolarga duch kelamiz. O`quvchilar o`zlarining psixologik, jismoniy, fiziologik imkoniyatlarini hisobga olmasdan jamiyatga nufuzga ega bo`lgan, ko`proq daromad topish imkoni bo`lgan kasblarni egallashga harakat qilmoqdalar. Shu o`rinda maktab amaliyotchi psixologi o`quvchini qobiliyati, layoqati, jismoniy imkoniyati, psixologik jihatlarini hisobga olgan holda kasb tanlashga ko`maklashishi lozim. Shuningdek jamiyatda ehtiyoj sezilayotgan kasblar haqida o`quvchilar bilan muntazam ravishda suhbatlar va tushuntirish ishlarini olib borishi lozim.

Yoshlarnibg tanlagan sohalari yoki kasblarida kelajakda o`zlarini ko`rsatishi, ob'ro` topishi, katta yangiliklar, kashfiyotlar qilishlari kerak. Lekin asta-sekinlik bilan yangilik va kashfiyotlar qilish uchun ularda bilim va tajriba yetishmayotganligini, buning uchun ko`proq o`qish va o`rganishlari kerakligini anglay boshlaydilar. Shunga ko`ra, har kim qobiliyatiga yarasha kasb-hunar tanlasa, bu sohada muvaffaqiyatli mehnat qilsa, ijtimoiy turmush taraqqiyotiga muhim hissa qo`shgan bo`ladi. O`quvchilarni kasbga yo`naltirishda ularning his tuygu va irodalarini hisobga olishning ham muhim ahamiyati bor.

Chunki, o`quvchilarning his - tuyrusi, kayfiyati, hayajonli holatlarda e'tiborga olinmasa, ko`zlangan maqsadga erishib bo`lmaydi. Yoshlar u yoki bu kasbni o`z ixtiyorlari bilan ongli ravishda tanlashlari uchun ular mustaqillik, dadillik, qat'iylik, o`zini tuta bilish, chidamlilik, sabr - toqat kabi umuminsoniy va shaxsiy hislatlarga ega bo`lishlari kerak. Mehnat qilishda muqaddas burchni bajarish istagi, maqsadning aniqligi, hunar o`rganishga ishtiyoqmandlik mazkur fazilatlarning shakllanishiga ijobiy ta'sir ko`rsatadi. Hayotda turli xil kasblar mavjud. Bir odam bir necha xil kasblarni egallashi mumkin, lekin shu bilan birga har bir kasb shu qadar murakkabki, inson o`z hayotini asosan, ana shu bir kasbga bag`ishlashi mumkin. Shu asosda kasb tanlash muammosi vujudga keladi. Aslida kasb tanlash barcha davrdan boshlab bolalarning rolli o`yinlarida ko`rinadi. Ma'lum bir kasbda faoliyat ko`rsatishni boshlayotgan inson unga intellektual, ijtimoiy - psixologik hamda axloqiy jihatdan tayyor bo`lishi kerak.

Har qanday kasbiy ko`nikma va malakalarning o`sishi, avvalo o`quvchi intellektining umumiy rivojlanganlik darajasiga bog`liq. Shuning uchun ham bu davrdagi o`quvchilar intellektining rivojlanishiga alohida e'tibor berish lozim. Ushbu mavzuning nihoyatda dolzarbligini e'tiborga olib, uning qator jihatlarini o`rganish, dinamik kuzatish, diagnostik tomonlarini aniqlash lozim. Intelektni rivojlantiruvchi o`yinlar va mashqlar o`tkazish, individual maslahatlar berib borish lozim.

Umuman olganda yoshlarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularni takomillashtirish va isloh qilish jarayonini samarali tashkil etish, kasbiy ko`nikma va malakalarning oshirish uchun pedagogik shart-sharoitlar tizimini ilmiy asoslash murakkab va ko‘p qirrali masala bo`lib biz quyidagi fikrlarni ilgari suramiz:

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-4

- Har bir yoshning o‘ziga xos psixologik rivojlanish bosqichlariga a`lohida e`tibor berish;
- Ijodiy fikrlash — divergent fikrlash, muammoni yangicha ko‘ra olish, tasavvur va intuitsiyaning faol ishlashi bilan bog‘liqligini o`rganish;
- Motivatsiya va ichki qiziqish ijodning asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri hisoblanadi;
- Interfaol metodlar orqali darslar o`tishni tashkil qilish;
- Differensial yondashuv orqali har bir o‘quvchining individual qobiliyatini hisobga olib dars tashkil etish choralarini ko`rish;
- Innovatsion texnologiyalar: raqamli vositalar, multimedia, onlayn ta’lim platformalari orqali ijodiy muhit yaratish;
- innovatsion g‘oyalarni ro‘yobga chiqarishga yordam beradi;
- Yosh o‘qituvchilarning malakasini oshirishda zamonaviy metodikani bilgan va motivatsiya bera oladigan pedagoglardan unumli foydalanish;
- Ta’lim va ish bozorini birlashtirish orqali mehnat bozoridagi ehtiyojga mos kasbiy ta’lim tizimini yo‘lga qo‘yish.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda yoshlarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularni takomillashtirish va isloh qilish jarayoni asosiy masalalardan biri hisoblanadi, bu borada quydagi yo‘nalishlar bo‘yicha tizimli faoliyatni amalga oshirish lozim, deb o‘ylaymiz:

Birinchidan, bugungi kunda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar yoshlarning bilimini mustahkamlash, ijodkorliligi va faolligini oshirishi uchun asos bo‘lib xizmat qilishi zarur.

Ikkinchidan, bugungi kundagi globallashgan va axborotlashgan, raqamli texnologiyalar davrida, bo‘lajak yosh pedagoglarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish zamon talablari asosida shakllantirish va rivojlantirish usullarini amalga oshirish choralarini ko‘rish.

Uchinchidan, ijodiy va iqtidorli, qobiliyatli, yosh o‘qituvchilarni saralab olish, ularni maktab davridayoq o`qituvchilik kasbiga tayyorlab boorish, ularning imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda iqtidorli yosh pedagoglar jamoalarini tuzish, o‘zaro suhbatlar uyushtirish orqali sohani yanada rivojlantirish konsepsiyalarini ishlab chiqish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh. M. Mirziyoyev. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni.
2. Алексеев Н.Г., Юдин Э.Г. О психологических методах изучения творчества. - М., Наука, 1971,- с. 22
3. Богоявленский Д.Н., Менчинская Н.А. Психология усвоения знаний в школе. М.: 1959.- 347 с.
4. Батурина Г.И. Введение в педагогическую профессию: Учебное пособие/ Г.Ф.Кузина. -2-е изд., стер. -М.; Академия, 1999 - с. 176
5. Сластенин В.А. Формирование личности учителя советской школы в процессе его профессиональной подготовки. -М.: Просвещение, 1976.-е. 160, 36-54
6. Азимов С.С. Авлиякулов М.М., Собиров Т.Р, Бадиев М.М.- Дидактических задач в развитии пространственного воображения студентовeuropean science-2021. № 2 (58)
7. https://internationaljournals.co.in/index.php/giirj/article/view/5134